

O‘ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

**№ 5 (17/2) 2024
Maxsus son**



**“O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI
BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY VA
AMALIY ASOSLARI”**



**LYIHA RAHBARI VA
TASHABBUSKORI:**

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Toshkent davlat agrar universiteti

BOSH MUHARRIR:

Kamolitdin SULTONOV

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI:

Laziza G'OFUROVA

IJROCHI DIRECTOR:

Baxtiyor NURMATOV

MAS'UL KOTIB:

Ubaydullo RAHMONOV

DIZAYNER-SAHIFALOVCHI:

Denislam ALIMKULOV

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yhatiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25 fevralda 1548-sonli
guvohnoma bilan qayta ro'yxatga
olingan.

Jurnal 2000 yil aprel oyidan tashkil topgan
jurnal bir yilda 6 marta chop etiladi.

Bosishga ruxsat etildi: 04.09.2024.

Qog'oz bichimi 60x84¹/₈

Offset usulida cosildi. Biyurtma №

Adadi: 100 nusxa.

«Agrar fani xabarnomasi» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent viloyati,

Qibray tumani, Universitet ko'chasi,
2-uy

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

№ 5 (17/2) 2024

Ilmiy-amaliy jurnal

Tahrir hay'ati raisi:

Abdurahmonov Ibrohim

O'zbekiston Respublikasi

Qishloq xo'jaligi vaziri

Tahrir hay'ati a'zolari:

S.Islamov

K.Sultonov

X.Mardonov

A.Abduvasikov

D.Mamadiyarov

Sh.Nurmatov

T.Ostonaqulov

X.Bo'riev

T.Shamsiddinov

U.Ballasov

U.Ruzmetov

S.Yunusov

I.Rustamova

B.Kamilov

S.Ulugova

I.Gorlova

Sh.T.Hasanov

B.M.Eshonqulov

X.X.Xonqulov

Sh.A.Muratov

A.U.Mahmatmurotov

I.X.Amanturdiyev

R.X.Qalandarov

B.A.Abduxalikova

X.M.Tilavov

B.Fayzullaev

Ta'sischi:

Agrar fani xabarnomasi MCHJ

Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi 2-uy,
ToshDAU.

Tel: (+99871) 260-44-95. Faks: 260-38-60.

e-mail: nurmatovbaxtiyor868@gmail.com

Maqolada keltirilgan fakt va raqamlar uchun
mualliflar javobgardir.

**ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ
УЗБЕКИСТАНА**

**BULLETIN OF THE AGRARIAN
SCIENCE OF UZBEKISTAN**

Qo‘chqorov X., Xursanov X., Ergashev Sh. Kuzgi tunlamga qarshi biologik kurash usuli.....	219
Kadirova G., Qozoqboyev S., Mashrabov M. Och tusli bo‘z tuproqlarning mexanik tarkibi va uning ahamiyati (Nurobod tumani misolida).....	220
Tursunov Q., Murodov I., Bashirov U. Tokda unshudring (<i>uncinula necator burrill</i>) ga qarshi abl-antioid 32.5% sus.k. fungitsidini biologik samaradorligi bo‘yicha sinov natijalari.....	222
Toshtemirov A., Fayzullaev B., Abdillayev M. Samarqand viloyati sharoitida issiqxonadagi pomidorda oqqanot (<i>trialeurodes vaporariorum westw.</i>) ga qarshi kurash choralari.....	223
Po‘latov O.A., Boltaboyeva M.F., Omonqulov D.B., Murodov I.Q. Enkarziyani issiqxonada ko‘paytirish va oqqanotlarga qarshi qo‘llash samaradorligi.....	225
Maxmatmurodov A.O., Po‘latov O.A., Omonqulov D.B., Murodov I.Q. Yong‘oqning ixtisoslashgan so‘ruvchi zararkunandalari va ular miqdorini kimyoviy usulda boshqarish.....	227
Omorqulov D., Xursanov X., Murodov I., Ergashev Sh. Kemiruvchi tunlamlar va tamaki maydonlarida ularga qarshi kurash.....	228
Xursanov X., Maxmatmurodov A., Shakarov O. Tangaqanotli (<i>Lepidoptera</i>) turkumi zararkunandalariga qarshi kimyoviy kurash.....	229
Ortiqov T., Shoniyozov B., Komiljonov O. Azotli o‘g‘itlaning amarant o‘simligi kimyoviy tarkibi va sifatiga ta’siri...	231
Maxmatmurodov A.O., Madiyev A.J. Intensiv pista bog‘larida tarqalgan so‘ruvchi zararkunandalar va ularga qarshi kurash choralari.....	233
Tilovov S.B., Xolmurodova M.O. Amarantning hosildorligiga fosfor miqdorining ta’siri.....	235



O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

Tadqiqot natijalari. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Uzumning oidium kasalligiga qarshi ABL-ANTIOID 32,5 % sus.k. fungitsidini 0,5 l/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda zararlanish barglarda 5,7 %, novdalarda 5,3 %, uzumboshlarda 6,0 % gacha kuzatildi. Kasallik rivojlanishi ham mos ravishda

barglarda 1,5 % ni, novdalarda 1,2% ni va uzumboshlarda 1,6 % gachani tashkil etgan bo'lsa, biologik samaradorlik barglarda 93,1 % ni, novdalarda 93,9 % ni va uzumboshlarda 92,5 % gachani tashkil etdi.

1-jadval

Bug' doydada bir yillik boshqoqli va keng bargli begona o'tlarga qarshi ABL-ANTIOID 32,5% sus.k. fungitsidini biologik samaradorligi

(Samarqand viloyati Tayloq tumani, "Xalilov Haydar Hamid bog'i" fermer

T/r	Variantlar	Qo'llash me'yori, kg, l/ga	Zararlangan o'simlik a'zolari	Zararlanish, %	kasallikning rivojlanishi, %	biologik samaradorlik, %
1.	Nazorat - (ishlov o'tkazilmagan)	-	barglar	48,0	21,9	-
			novdalar	45,3	20,3	-
			uzum boshlari	50,0	22,0	-
2.	ABL-ANTIOID 32,5% sus.k.	0,5	barglar	5,7	1,5	93,1
			novdalar	5,3	1,2	93,9
			uzum boshlari	6,0	1,6	92,5
3.	Star Top 32,5% sus.k. (Andoza)	0,4	barglar	10,7	2,8	87,2
			novdalar	10,3	2,4	88,1
			uzum boshlari	11,3	2,5	88,7

Andoza variant sifatida Star Top 32,5% sus.k. (0,4 l/ga) fungitsidi qo'llanilganda zararlanish barglarda 10,7 %, novdalarda 10,3 %, uzumboshlarda esa 11,3 % gachani, kasallik rivojlanishi barglarda 2,8 % ni, novdalarda 2,4 % ni va uzumboshlarda 2,5 % ni, biologik samaradorlik esa barglarda 87,2 % gacha, novdalarda 88,1% gacha, uzumboshlarda esa 88,7% gacha yetdi.

Xulosalar. ABL-ANTIOID 32,5 % sus.k. fungitsidi uzumning oidium kasalligiga qarshi 0,5 l/ga sarf-me'yorda qo'llanilganda zararlanish barglarda 5,7 %, novdalarda 5,3 %,

uzumboshlarda 6,0% gachani, kasallik rivojlanishi barglarda 1,5% ni, novdalarda 1,2 % ni, uzum boshlarda 1,6 % tashkil etdi. Biologik samaradorlik barglarda 93,1 % ni, novdalarda 93,9 % ni va uzumboshlarda 92,5 % gachani tashkil etdi. Andoza variant sifatida Star Top 32,5% sus.k. (0,4 l/ga) fungitsidi qo'llanilganda zararlanish barglarda 10,7 %, novdalarda 10,3 %, uzumboshlarda esa 11,3 % gachani, kasallik rivojlanishi barglarda 2,8 % ni, novdalarda 2,4 % ni va uzumboshlarda 2,5 % ni, biologik samaradorlik esa barglarda 87,2 % gacha, novdalarda 88,1% gacha, uzumboshlarda esa 88,7% gacha yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алейников, Н.В., Якушина Н.А., Галкина Е.С. Потери урожая винограда в зависимости от эффективности защитных мероприятий // Виноградарство и виноделие. – Ялта. – 2013. – Т. ХЛIIII. – С.35–38.
2. Алейникова Н.В. Основные болезни винограда в условиях Крыма, прогноз их развития и система защиты: Автореф. дисс. докт. с/х наук. – Ялта, 2010. – 30 с.
3. Алейникова Н.В., Галкина Е.С., Якушина Н.А. Биофунгицид Микосна В – рациональна технология застосування для захисту винограду від основних грибних хвороб // Карантин і захист рослин. – 2012. – № 3. – С.18–23
4. Галкина Е.С., Андреев В.В. Мониторинг развития резистентности возбудителя оидиума винограда к фунгицидам из класса триазолы, ингибиторы синтеза стерола в условиях Южного берега Крыма // Виноградарство и виноделие. – 2015. – Т. ХЛВ. – С.61–64.
5. Рабаданов Г.Г. Концепция интегрированной экологизированной системы защиты виноградных насаждений от болезней и вредителей // Сб. научн. тр. гос. научн. учреждения Северо - Кавказский зональный научно-исследовательский институт садоводства и виноградарства Россельхозакадемии. – Краснодар, 2013. – Т. 2. – С.29–33.
- 6.Ходжаев Ш.Т. Инсектицид, акарацид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар - Ташкент, 2004. – 103 б.

UO*K:632:635.64:632.8

A.Toshtemirov, B.Fayzullaev,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali

M.Abdillayev

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institute

SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA ISSIQXONADAGI POMIDORDA OQQANOT (TRIALEURODES VAPORARIORUM WESTW.) GA QARSHI KURASH CHORALARI

Annotatsiya: Maqolada oqqanotning turlari, tarqalishi, zarari va Samarqand viloyati sharoitida issiqxonadagi pomidorda oqqanotga qarshi kurash choralari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oqqanot, zararkunanda, entomofag, so'ruvchi, pestitsid, kimyoviy, preparat.

Kirish. Sabzavot ekinlari qishloq xo'jalik ekinlari orasida eng ko'p yetishtiriladigan iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy eksportbop ekinlar qatoriga kiradi. Keyingi yillarda sabzavot ekinlarida, shuningdek pomidor o'simligida ham zararli organizmlar bilan zararlanish holatlari ko'p uchramoqda, bu esa biologik toza va sog'lom mahsulot yetishtirishga salbiy ta'sir etib, kelgusida nafaqat o'simliklar hosildorligini pasayishiga balki sifatsiz va talabga javob bermaydigan mahsulotlar yetishtirishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda, pomidor zararkunandalariga qarshi kurashda biologik usulning ulushi 91 foizni tashkil etmoqda. Keyingi yillarda yangidan biolaboratoriyalar tashkil etilmoqda va eskilari qayta jihozlanmoqda. Jumladan, keying uch yilda Samarqand viloyatida 10 dan ortiq yangi biolaboratoriyalar tashkil etildi va 30 dan ortiq biolaboratoriylarning biomahsulot ko'paytirish quvvati oshirildi, klaster, fermer va tomorqa egalari biologik usulni qo'llash imkonini yaratildi. Zararkunandalarning yoppasiga tarqalishining oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlarga ham katta e'tibor berilmoqda. Kimyoviy ishlov ko'lam kamayishiga qaramay bu usuldan zararkunadalar keskin ko'paygan va biologik qarshi kurash usullari samara bermaydigan holatlarda foydalanish lozim. Shu sababli, kimyoviy preparatlarning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish va yuqori iqtisodiy samara olish maqsadida kamroq zaharli (III-IV klass) bo'lgan pestitsidlardan foydalanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yuqori va sifatli hosil olishning asosiy omillaridan biri o'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishdir. Buning uchun klaster, fermer va tomorqa egalari o'simliklarni himoya qilish tadbirlarini to'g'ri va rejalı tashkil etishning ilmiy asoslangan tizimini yaxshi o'zlashtirib olishlari lozim.

Hozirda yer yuzida Aleyrodidae (oqqanotlar) oilasiga mansub hasharotlar Martin & Mound (1987) ma'lumotiga ko'ra 126 oilaga mansub 1156 tur mavjudligini qayd qilgan. Keyinchalik Aleyrodidae (Hemiptera) oilasiga mansub hasharotlarni o'rganish jarayonida Gregory A. Evans (2007) 166 oila, 3 ta kenja oilaga oid (Aleyrodicinae, Aleyrodinae, Udamosellinae) 1551 tur mavjudligini ta'kidlaydi va turlarni bir biridan ajratishda ularning morfologik jihati katta ahamiyatga egaligini ko'rsatgan. Oqqanot oilasiga kiruvchi hasharotlar rivojlanishi nimfalik davrida to'rtinchi bosqichi g'umbakka o'tishi biri biridan farqli deb hisoblaydi. Oqqanotlar Homoptera turkumi Aleyrodidae oilasiga mansub fitofag turlariga mansub hasharotlardir. Dunyo bo'yicha keng tarqalgan va qishloq xo'jaligi ekinlarida katta zarar yetkazadi.

Bulardan eng ko'p tarqalgan turlar issiqxona oqqanoti (Trialeurodes vaporariorum Westw.), g'o'za oqqanoti (Bemisia tabaci Genn), sitrus oqqanoti (Dialeurodes citri A.) turlari jiddiy zarar keltirmoqda. Jumladan qishloq xo'jaligida 200 dan ortiq sabzavot va poliz ekinlarida, texnik ekinlarning 30 dan ortig'ida, manzarali gullar va butalarning 60 dan ortiq turlarini zararlaydi. Oqqanot aslini olganda issiq o'lkalar hasharoti hisoblanib, respublikamiz viloyatlarida keyingi yillarda paydo bo'la boshladi. Bunga sabab bizning o'lkamizda oqqanotning tabiiy

kushandalarining kamligi hisoblanadi. Aleyrodidae oila vakillarini tadqiq etish 1736 yildan boshlanib, qishloq xo'jaligi ekinlarida zarari kengayib borgan davrga to'g'ri keldi. Bu davrda ushbu oilaning eng xafli turlaridan biri Aleyrodes prolella L. turi Reomyur tomonidan o'rganila boshlandi. Bundan oldin boshqa olimlar ushbu oila vakillarini kukyalar sifatida nomlay boshlagan. 1976 yilga kelib Latreyl (1796) ushbu turni Homoptera turkumi Aleyrodes oila vakili sifatida nomlagan. Birinchi marta Fraunfel 1867 yil oqqanotlar to'g'risida ilmiy maqola chop ettirdi, shundan so'ng Sinore tomonidan birinchi monografiya chop ettirildi va unda oqqanotning 23 turi qayd qilingan edi. Shundan so'ng Maxwell (1895) o'zining ushbu ro'yxatni yanada kengaytirib 66 taga yetkazdi. Oqqanot turlari va ularning tabiiy kushandalarini o'rganish Turkmanistonda o'tgan asrning 60-yillaridan takomillasha boshladi. Turkmanistonda atirgul oqqanoti-Bulgarialeurodes cotesii Mask. katta xavf tug'dirishi keltirilgan. Oqqanotning faunasi bo'yicha Turkmanistonda S.M. Myarsevov, J.V. Smirnov va R.X. Muxiyev (1998) lar shug'ullangan.

Mamlakatimiz sharoitida oqqanotning 2 ta turi katta havf tug'dirib poliz va sabzavot ekinlarini jiddiy zararlaydi. Bular issiqxona oqqanoti (Trialeurodes vaporariorum Westwood, 1856) va g'o'za oqqanoti yoki tamaki oqqanoti (Bemisia tabaci Gennadius, 1889) dir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oqqanotga qarshi tavsiya qilingan preparatlarning qo'llash va biologik samaradorligini aniqlash maqsadida issiqxonadagi pomidor maydonida tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqot uslublari. Tajribalar 3 ta tajriba, andoza va nazorat variantlaridan tashkil etdi. Har bir variant 3 qaytariqdan iborat bo'ldi. Issiqxona oqqanoti har bir variant takrorining o'rtasidan 10 ta namuna olinadi. Ularning har biridan 1 tadan zararlangan o'simlik tekshiriladi. Zararkunandalar soni ishlov berilgancha va ishlov berilgandan keyingi 3, 7, 14 kunlari (ya'ni zararkunandaning soni takroran keskin ko'paya boshlaguncha) hisobga olindi. Preparat samaradorligi nazorat variantiga taqqoslangan holda aniqlanadi.

Dala sinovlarini o'tkazish Xo'jayev Sh.T (2004) uslubiy ko'rsatmalari yordamida [4], qo'llanilgan preparatlarni ta'sirini baxolashni Suxoruchenko G.I. (2006) uslublari asosida bajarildi [5]. Biologik samaradorlikni hisoblash esa mavjud uslubiyat bo'yicha Po'ntener (1981) formulasiga muvofiq amalga oshirildi [12].

Tajriba sinovlarini o'tkazish joyi. Tajriba sinovlari Samarqand viloyati, Samarqand tumani, "Bobur agro innovatsiya" fermer xo'jaligi issiqxonasida ekilgan pomidor o'simligida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Pomidor zararkunandalariga qarshi Vectra plus 30% preparatini gektariga 0,3 litr hisobida oqqanotga qarshi qo'llaganilganda biologik samaradorlik ishlovdan so'ngi 3-kuni 83,0%, 7-kuni 85,9%, 14-kuni 87,3% ni tashkil qildi. Dinamit 20% s.d.g.- (Andoza) - 0,5 kg/ga qo'llanilgan variantida biologik samaradorlik 3-kuni 80,1% ni, 7-kuni 84,5% ni va 14-kuni 85,5% tashkil qildi.

1-jadval

Vectra plus 30% insektitsidini issiqxonadagi pomidorda oqqanotga qarshi biologik samaradorligi.
(Samarqand viloyati Samarqand tumani, "Bobur agro innovatsiya" fermer xo'jaligi, 2024 yil)

№	Tajriba variantlari	Preparat-ning sarf me'yori l, kg/ga	Hasharotlarning bitta bargidagi yoki o'simlikdagi o'rtacha soni, dona				Samaradorlik %, kunlar bo'yicha		
			Ishlov-gacha	Ishlovdan keyin kunlar bo'yicha			3	7	14
				3	7	14			
1.	Vectra plus 30%	0,3	10,4	2,6	2,4	2,5	83,0	85,9	87,3
2.	Dinamit 20% s.d.g.- (Andoza)	0,5	10,6	3,1	2,7	2,9	80,1	84,5	85,5
3.	Nazorat (ishlov o'tkazilmagan)	-	11,0	16,2	18,1	20,8	0	0	0

Xulosa va takliflar. Tajriba natijalari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, issiqxonadagi pomidorda oqqanotga qarshi Vectra plus 30% preparatini gektariga 0,3 l/ga me'yorda o'z vaqtida va sifatli qo'llaydigan bo'lsak, biologik samaradorlik

ham yuqori bo'ladi.

Vectra plus 30% preparatini 0,3 l/ga me'yorida issiqxonadagi pomidorda oqqanotga qarshi qo'llanilganda fitotoksiklik xususiyatlari kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayev B., Axmedov S.I., Xudoyqulov A. Qishloq xo'jalik entomologiyasi va karantin asoslari fanidan laboratoriya mashg'ulotlari (Uslubiy qo'llanma). Samarqand – 2014. 70 bet.
2. Kimsanboyev X.X., Yo'ldoshev A.Y., Zohidov M.M., Xalilov K.X., Siddikov I.R., Qosimov T.A., O'simliklarni kimyoviy himoya qilish.- Toshkent: O'qituvchi, 1997.-279 b.
3. Migulin A.A. «Qishloq xo'jalik entomologiyasi». Moskva, 1983 y.
4. Pospelov S.M., Arsenyeva M.V., Gruzdev G.S. "O'simliklarni himoya qilish" 200 bet O'qituvchi nashriyoti Toshkent-1978.
5. Xo'jayev Sh.T. Agrotoksikologiyab asoslari hamda tadqiqot o'tkazish qoydolari. – Toshkent: Navruz, 218-143 b.
6. Xo'jayev Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ilg'or tajriba (maqolalar to'plami). – Toshkent: <Talqin>, 2008.- 119 b.
7. Xo'jayev Sh.T. Insektisid, akarisidlarni biologik faol moddalar va fungisidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. II-chi nashr. Toshkent-2004. 3-10 betlar.
8. Xo'jayev Sh.T., Sulaymonov O.A. Ensiklopediya, Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari, "Yangi nashr nashriyoti": Toshkent,2019.

UO'K:632:632.8

O.A.Po'latov - katta o'qituvchi,

M.F.Boltaboyeva - talaba

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

D.B.Omonqulov - kichik ilmiy xodim,

I.Q.Murodov - kichik ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Samarqand filiali

ENKARZIYANI ISSIQXONADA KO'PAYTIRISH VA OQQANOTLARGA QARSHI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya: maqolada enkariya parazitini biolaboratoriya sharoitida ko'paytirish hamda qishloq xo'jalik ekinlarining ashaddiy zararkunandasi bo'lgan oqqanotga qarshi qo'llashning samaradorligi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: organik qishloq xo'jalik mahsuloti, parazit, entomofag, hasharotlarning rivojlanish stadiyasi, yashovchanlik, zararkunanda, samaradorlik, biotsenoz, populyatsiya, imago, pupariy va bosqichli ko'paytirish.

Abstract: the article provides information on the breeding of the encaria parasite in biolaboratory conditions and the effectiveness of its use against whitefly, which is a serious pest of agricultural crops.

Key words: Organic agricultural produce, Parasite, entomophagus, developmental stages of insects, viability of insects, pest, productivity, biocenosis, population, imago, puparia and stage reproduction.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining tashabbusi bilan "Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish to'g'risida"gi qonun loyihasi e'lon qilingan bo'lib, unda o'simliklarni zararkunandalar, begona o'tlar va o'simlik kasalliklaridan himoya qilishda biologik usuldan foydalanish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 23 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida meva-sabzavot mahsulotlari eksportini oshirish uchun kamida bitta tuman hududini organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish, hududlarning organik mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish imkoniyatini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish nazarda tutilgan [1].

Tadqiqot maqsadi. Ilmiy ishdan ko'zlangan maqsad O'zbekiston Respublikasining sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtiriladigan hududlarida issiqxona oqqanoti va g'o'za

oqqanoti keng tarqalgan hamda iqtisodiy zarari ortib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan yetarli darajada mo'l hosil olish va mahsulotning organik tozaligiga erishish bo'yicha enkariya parazitining turlari, rivojlanishi va oqqanot zararkunandasi populyatsiyasiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda kimyoviy moddalarni ishlatmasdan yuqori hosil olish, ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun oqqanotga qarshi enkariya parazitini qo'llash, uning zararkunanda rivojlanishi va populyatsiyalari sonini kamayishiga ta'sirini o'rganish hozirgi kunda o'simliklarni himoya qilish mutaxassislarida oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan materiallar va usullar. Tadqiqotlar umum qabul qilingan entomologik kuzatuvlar asosida olib borildi. Hasharotlarning rivojlanishini o'rganishda Sh.T.Xo'jayev (2018) usullaridan foydalanildi. Enkariya g'umbaklarini ajratib olish uchun maxsus "Malyutka" kir yuvish mashinasidan foydalanildi.

Tajriba natijalari va muhokamalar. Tajriba davomida enkariya paraziti biolaboratoriyada maxsus tuvalarda ekib o'stirilgan tamaki o'simligida ko'payib rivojlangan oqqanot